

**1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi**

1. *Hamma ham do'stlarini, yaqin kishilarini e'zozlaydi, ularning ko'p bo'lishini istaydi.* Ushbu gapda qaysi gap bo'lagi uyushgan?  
A) aniqlovchi B) ega C) to'ldiruvchi D) hol
2. *Vatanning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak.* Ushbu gapda nechta otli birikma mavjud? A)2ta B)3ta C)4ta D)1ta
3. Berilgan birliklarning qaysilari ham so'z birikmasi, ham turg'un birikma sifatida qo'llanishi mumkin?  
1) boshiga yetmoq; 2) qulog'iga quymoq; 3) o'z yog'iga qovurilmoq;  
4) yaxshi ko'rmoq; 5) to'nini teskari kiymoq; 6) ko'nglidan o'tkazmoq  
A) 2,3,4,5 B) 1,2,3,4,5,6 C) 1,2,3,4,5 D) 2,4,5
4. Qo'shma gap berilmagan qatorni toping  
A) Umuman, odam bolasi tug'ilibdiki, nimanidir himoya qilib yashaydi  
B) Kuchli shovqin nafaqat katta yoshdagi kishilar, shuningdek, o'quvchilar faoliyatiga ham zarar keltiradi  
C) Yigit-qizlarimiz O'zbekistonning, insoniyatning bolasi bo'lsa, hamma faxrlanadi  
D) Komila, nihoyat, tavakkaliga bir qovunni uzdi-da, hidlab olib chiqdi
5. Bo'lsa, esa so'zlari qo'shma gapning qaysi turini bog'lash uchun xizmat qiladi?  
A) ergashgan qo'shma gap B) bog'lovchisiz qo'shma gap  
C) bog'langan qo'shma gap D) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap
6. Ko'makchili qurilmalar yordamida bog'langan qo'shma gaplar tarkibida bosh gapning o'rni qanday bo'ladi?  
A) ergash gapdan oldin keladi  
B) ergash gapdan keyin keladi  
C) ergash gapdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin  
D) ko'makchili qurilmalar bog'langan qo'shma gap tarkibida keladi
7. Qaysi javobda o'zaro sinonim iboralar qo'llangan?  
A) O'takasi yorildi – o'pkasi o'g'ziga keldi  
B) Tegirmonga tushsa, butun chiqadi – tegganga tegib, tegmaganga kesak otadi  
C) Tarvuzi qo'ltig'idan tushdi – hafsalasi pir bo'ldi  
D) Tepa sochi tikka bo'ldi – kapalagi uchib ketdi
8. XIX asr oxiridan XX asr boshlarigacha dostonlarning variantlari bilan qo'shib hisoblaganda jami nechta doston yozib olingan? A) 150 B) 200 C) 100dan ortiq D) 400
9. Men turkcha boshlabon rivoyat, Qildim bu fasonani hikoyat. "Xamsa"ning qaysi dostonida Navoiy asarini turkiy tilda bitganini aytgan?  
A)"Farhod va Shirin" B)Hayrat ul-abror" C)Layli va Majnun" D)"Sabbayi sayyor"
10. Xoja qaysi mashhur avliyoning avlodlaridan hisoblanadi?  
A)Bahouddin Naqshband B)Xo'ja Ahror Valiy  
C)Zangi Ota D)Abduxoliq G'ijdivoniy

**2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi**

11. Ushbu gaplarning qaysi birida // shartli belgisi o'rnida ikki nuqta qo'yiladi?  
A) Hamal keldi // amal keldi.



- B) Mening bir jaydari falsafamdir shu// Hargiz iltimosga kuning qolmasin.  
C) Yana uvlar dahshat shamoli// Ko'kni qora bulut quchadi.  
D) Ruboiyni ichida o'qidi// yuzini tabassum qopladi.
- 12.** Berilgan qaysi gapda gap bo'laklari to'ldiruvchi, aniqlovchi, ega va kesim tartibida joylashgan?  
A) Yigitlarga ishning hammasini topshirib ketdi.  
B) Xonaga sochlarining yarmi oqargan kishi kirib keldi.  
C) Uning gapiga kim ham quloq solardi.  
D) Hovlini qizlarning qahqahasi tutib ketdi.
- 13.** Qaysi gapda -dir qo'shimchasi gumon ma'nosini bildirib kelgan?  
A) Taskin berib onam yig'laydir, Qolganlari yolg'on yig'laydir.  
B) Ot mindirib kim qaytardi yurtga uni? Jahongiri bexonumon yurt edi bu.  
C) Nadir millat qudratining tamadduni, Amir Temur haykalidan so'rang buni.  
D) Bir vaqtlar meni deb halok bo'lgan kimdir, Men uning uchun ham yashab yuribman.
- 14.** Berilgan qaysi gapda murakkab ot kesim qatnashgan?  
A) Aka, juda mohir ustasiz, sizdan o'rnak olish bizga foyda keltiradi.  
B) Vazifamiz – o'qish, o'qiganda ham a'lo o'qish.  
C) Kun juda isib ketgan edi, shuning uchun eshiklarni ochib qo'ydik.  
D) Mening dadam shifoxonada eng tajribali jarrohlardan biri sanaladi.
- 15.** Qaysi gapda kelishik qo'shimchalari uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llangan?  
A) Ayrilganning ayiq yer, Bo'linganning bo'ri yer.  
B) Har yerni qilma orzu, har yerga bor tosh-u tarozi.  
C) Tilda e'tiborsiz – elga e'tiborsiz.  
D) Buncha bino qo'yma zarrin choponlarga, Saratonda yaproq bo'lgin dehqonlarga.
- 16.** Kelishik qo'shimchalari bilan birikkan so'z birikmalari qatorini belgilang?  
A) Bog'da sayr, kitob uchun gilof                      B) Bulbul navosi, so'z sehri  
C) Diqqat bilan tinglash, kitobni o'qimoq          D) Ijodiy uchrashuv, bahordagi shabada
- 17.** *A'loxon o'zining xatosini angladi va gapirolmay g'uldirab javob berdi: "Sizsiz menga dunyo tor".*  
Gapdagi yasama so'zlar miqdori.                      A) 3ta                      B) 5ta                      C) 4ta                      D) 6ta
- 18.** "Sog'inish" she'rida "eng kichik zarradan Yupitergacha, o'zing murabbiysan" deya nimaga nisbatan murojaat qilinadi?                      A) Sog'inch                      B) oy                      C) quyosh                      D) Alloh
- 19.** Oybekning qaysi she'ri erksizlik, tutqunlikka bo'ysunmagan ijodkor ruhining, olamni qutqaruvchi bezavol go'zallikning so'nmas timsoli bo'lib qoldi?  
A) Kuz yomg'iri                      B) Na'matak                      C) O'zbekiston                      D) Qoraxat
- 20.** "Odamga quvvat beradigan umid, boshini toshdan qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir" "Ufq" asariga berilgan ushbu ta'rif muallifi kim?  
A) Oybek                      B) O.Sharafiddinov                      C) A.Qahhor                      D) O'Hoshimov

**3-qism: Har bir topshiriq 2,6 ballan baholanadi**

- 21.** Qaysi gapdagi uyushgan aniqlovchilar orasida fonetik hodisaga uchragan yasama so'z mavjud?  
A) Serchang ,sershovqin ko'chalarda odamlar daryoday oqib borar edi.  
B) Ko'p o'tmasdan sergo'sht shavla tortildi  
C) Chaqaloq kichkina, oppoq va dumaloq qo'llarini cho'zib menga talpindi.  
D) Bu yerda xalqning, sizning, mening farzandlarimiz ta'lim olishadi.



22. Hol ergash gapli qo'shma gap berilmagan qatorni qaniqlang.  
A) Shohga bildirdilarki, navkarlar beklar xizmatiga o'tib ketadi.  
B) Yutug'imiz shu darajada oshdiki, har bir xodim o'z vazifasini yaxshi biladi.  
C) Qay vaqt uyga kirmay, uni ko'raman.  
D) Qayerda intizom bo'lsa, tartib kuchli bo'ladi.
23. *Ko'k rang ochiq osmon va dengiz rangi sifatida o'zida yuksaklik va chuqurlikni ifoda etadi.* Ushbu gapdagi yasama so'zlar qanday sintaktik vazifalarni bajargan?  
A) to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol.      B) to'ldiruvchi, kesim  
C) to'ldiruvchi, aniqlovchi.      D) to'ldiruvchi, aniqlovchi, kesim
24. Kesimlaridan biri ot, ikkinchisi fe'l bilan ifodalangan qo'shma gap qaysi qatorda berilgan.  
A) Halol yashamoq- xalqqa xizmat qilmoq.  
B) So'z chertib olinishi, har yoqdan tanlanishi lozim.  
C) Bizning yurtimiz chaman, unda quvnab o'saman.  
D) Navbahor ochildi gullar sabza bo'ldi bog'lar.
25. Qaysi qo'shma gap qismlari nisbiy so'z yordamida birikmagan?  
A) Siz Hindistonda neniki ko'rgan bo'lsangiz, shularning barchasini jam etib, bir kitob yozmog'ingiz darkor.  
B) Qalandarov yugurdagini "Eshon, hoy!", deb chaqirganda Saida qanchalik xursand bo'lgan bo'lsa, buni ko'rib, ta'bi shunchalik tirriq bo'ldi  
C) Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, uning o'zi ham to'g'ri bo'ladi  
D) Yerga mehringni bersang, u senga rizq beradi
26. Men dadil ayta olamanki ,halol mehnat qilishga odatlangan odam hech qayerda uyalib qolmaydi. Ushbu qo'shma gap haqidagi to'g'ri hukmlarni belgilang.  
1) ergashgan gap bosh gap tarkibida ifodalanmagan to'ldiruvchini izohlamoqda; 2) ergash gap bosh gapdan oldin joylashgan; 3) ergash gap bosh gapga bog'lovchi vazifasidagi vosita yordamida bog'langan; 4) bosh gap shaxsi umumlashgan gap hisoblanadi; 5) qo'shma gap tarkibida bitishuvli birikmalar soni 3ta  
A) 1,2,3,4,5.      B) 1,3,5.      C) 2,4      D) 1,2,4
27. Berilgan gaplarning qaysilarida kiritma mavjud?  
1) *Hoy, aylanay, o'g'rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko'zimga uyqu keladimi?* 2) *Voy-bo'y deb yubordi-u .-Yerimiz muncha chiroyli!* 3) *Voy, sen-ey, -deya Chuchuk uloqchaning shalpang quloqlaridan tortqilab qo'ydi.* 4) *Ey Luqmon Hakim, sening dong'ing tutdi olamni.*  
A) 1,2,3,4      B) 2,3,4.      C) 3,4.      D) berilgan gaplarda kiritma mavjud emas.
28. "Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor" she'rida "jayrondek termulgan" ta'rifi kimga beriladi?  
A) Fitrat      B) U.Nosir      C) A.Ikromov      D) Cho'lpon
29. "Farhod va Shirin" dostonida Xusravning vaziri kim edi?  
A) Sheruya Parviz      B) Shopur      C) Buzrug Ummid      D) Davron Xallos
30. M.Shayxzoda qaysi mutafakkir ijodi va faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan jiddiy tadqiqotlar olib borgan?  
A) Bobur      B) Ibn Sino      C) A.Navoiy      D) Ganjaviy



**1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi**

1. Ovoz soʻzining maʼnodoshlaridan qaysi biri shevaga oid soʻz boʻlib, badiiy adabiyotda, ayniqsa, poeziyada kishi ovozi maʼnosida qoʻllanadi?  
A) un                      B) sado                      C) sas                      D) tovush
2. Sen mangusan, baqosan, Men esam oʻtkinchi zot.  
Sen hamisha bahorsan, Men – lahzalik xotiro.. Nechta sodda gap bor?  
A)2                      B) 4                      C) 5                      D) 6
3. Suhbatning oqibati shu boʻldiki, Qalandarov tumanga qaytdi. Qoʻshma gap turini toping  
A) ega ergash gap                      B) toʻldiruvchi ergash gap  
C) kesim ergash gap                      D) aniqlovchi ergash gap
4. Pir yoki eshonga qoʻl berib, soʻfiylik yoʻliga kirgan shaxs qanday ataladi?  
A)shayx                      B)eshon                      C)murid                      D)murshid
5. Bosh gap va ergash gap –sa shart mayli orqali bogʻlanganda qoʻshma gaplar orasida qanday munosabat yuzaga chiqadi?  
A) maqsad, sabab                      B) shart, payt                      C) qiyos, shart                      D) sabab, payt
6. Koʻchirma gap qaysi qatorda toʻgʻri yozilgan?  
A)"Eng buyuk jasorat- deydi yurtboshimiz- bu ma'naviy jasorat "  
B)"Eng buyuk jasorat- deydi Yurtboshimiz- bu ma'naviy jasorat "  
C)"Eng buyuk jasorat, deydi yurtboshimiz, -bu ma'naviy jasorat "  
D)"Eng buyuk jasorat, -deydi Yurtboshimiz, -bu ma'naviy jasorat "
7. Qaysi javobda sifat turkumiga oid oʻzaro maʼnodosh soʻzlar juftligi berilgan?  
A) tantiq – saxiy                      B) ozodlik – mustaqillik                      C) husn - goʻzal                      D) chiroyli – suluv
8. “Rustamxon” dostonida Sul-tonxonning nechta zaifasi (xotini ) bor edi?  
A) 7ta                      B) 4ta                      C) 3ta                      D) 2ta
9. “Nozik” gʻazalida yor husnda qaysi paygʻambardan ham ustun qoʻyiladi?  
A) Iso                      B) Yusuf                      C) Muso                      D)Yaqub
10. Oybekning xotirlashicha, uning birinchi sheʼri qaysi gazetada nashr ettirilgan edi?  
A)Tong nafasi                      B)Tong shuʼlasi                      C)Tong yulduzi                      D)Sharq yulduzi

**2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi**

11. Koʻk rang ochiq osmon va dengiz rangi sifatida oʻzida yuksaklik va chuqurlikni ifoda etadi. Ushbu gapdagi yasama soʻzlar qanday sintaktik vazifalarni bajargan?  
A)toʻldiruvchi,aniqlovchi, hol.                      B)toʻldiruvchi, kesim  
C)toʻldiruvchi, aniqlovchi.                      D)toʻldiruvchi, aniqlovchi, kesim
12. Quyidagi gapda egalik qoʻshimchalari bilan qoʻllangan soʻzlar nechta? Bagʻrim yoniq, yuzim qora, koʻnglim siniq, boʻyim bukik, sening ziyoratingga keldim, sul-tonim. A)5 B)6 C)7 D)8
13. Bulbul gulzorni izlar, boyoʻgʻli esa hamisha vayronani koʻzlardi. Berilgan gapdagi yasama soʻzlar qaysi turkumlarga mansub? A) ot, feʼl B) ot, sifat C) sifat, feʼl D) ot, sifat, feʼl
14. Qiyoslash maʼnosini bildiruvchi bogʻlangan qoʻshma gapni aniqlang.  
A)Soni koʻp, lekin salmogʻi yoʻq



- B)Gapni cho'zma, chunki hayot qisqadir
- C)To'g'ri til toshni yoradi, egri til esa boshni yoradi
- D)Chiroylidir go'yo yosh kelin

**15.** To'ldiruvchi tobe gapli qo'shma gapni toping

- A) Shohga bildirdilarki, navkarlar beklar xizmatiga o'tib ketadi.
- B) Yutug'imiz shundaki, har bir xodim o'z vazifasini yaxshi biladi.
- C) Qay vaqt uyga kirmay, uni ko'raman.
- D) Qayerda intizom bo'lsa, tartib kuchli bo'ladi.

**16.** «pul» ma'nosidagi *mullajiring* so'zida so'zlashuv uslubiga mansublik belgisi qaday bo'yoqni yuzaga chiqaradi?

- A)funksional bo'yoq      B)uslubiy bo'yoq      C) emotsional-ekspressiv bo'yoq      D)salbiy bo'yoq

**17.** Qaysi gap tarkibida sifatdosh mavjud?

- A)Jahli chiqqanidan hech kim ko'ziga ko'rinmas edi
- B)Bilmaslik ayb emas, bilishni xohlamaslik ayb
- C)Taxtga chiqqach adolat bilan ish ko'ribdi
- D)Rasm chizgani soy bo'yiga bordik

**18.** "Al-jome as-sahih" asarining birinchi va ikkinchi boblari qanday mavzuda?

- A)odob va iymon      B)adolat va ilm      C)tavoze va hayo      D)iymon va ilm

**19.** "Osiy banda" asarining janri? A) qissa      B) drama      C) roman      D) hikoya

**20.** Adabiyotning qaysi turidagi asarlarda shaxsning ichki tuyg'ulari, hissiyoti, ruhiy kechinmalari, sezimlari asosiy o'rinda bo'ladi?

- A) lirik tur      B) epik tur      C) dramatik tur      D) barchasi

**3-qism: Har bir topshiriq 2,6 ballan baholanadi**

**21.** Qaysi qatorda ergash gapdan oldin kelgan bosh gap egasi yasama so'z bilan ifodalangan?

- A) Kimki birovga qasd qilsa, o'sha pushaymonlik to'nini kiyadi.
- B) Giyohvandlik insoniyat kushandasi, shuning uchun unga qarshi ommaviy kurash olib borilmoqda.
- C) Bu o'zgarishlar hammaga yoqdi, chunkibarchaningko'nglidagiishlarbo'lganedi.
- D)O'quvchilar musobaqalarda yaxshi natijalarni qo'lga kiritsin deb, maktabimizda sport klubi faoliyat olib bormoqda

**22.** *Sening har bir ishing boshqalarga doimo ibrat bo'lishini unutma!* Ushbu gapda nechta so'z hokim bo'lak vazifasini bajara olmaydi? A) 2 ta      B) 5 ta      C) 4 ta      D) 3 ta

**23.** Qaysi gapda mustaqil va nomustaqil vositasiz to'ldiruvchi ishtirok etgan?

- A)Shu vajdanki har kun singlimdan so'roqlaysan ahvolimni san
- B)Doshqozonga olov yoqilgan, kabobpaz sixlarini ko'raga tergan, qassob esa allaqachon qo'yni tinchitgan edi.
- C)Rayxongullar terib katta bo'lgan bu qadimiy ko'chalar unga nimalarnidir eslatar edi.
- D) Zardushtiylik dini zohiriy udum va marosimlarni ko'r-ko'rona bajarmaslikdan, mavhumlik va xurofotdan xabar beradi

**24.** *Ma'naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, irodasini baquvvat qiladigan, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuchdir.* Ushbu gapdagi so'z yasovchilar sonini toping.      A) 5 ta      B) 6 ta      C) 7 ta      D) 4 ta





25. *Ey oy, agar samoda porloq nursen, Yorim yuzicha ravshan emas, benursen.* Ushbu gapdagi kesimlar sonini aniqlang. A)2ta B)3ta C)1ta D)4ta
26. Bog'langan qo'shma gapni aniqlang.  
A)Soni ko'p, lekin salmog'i yo'q B)Gapni cho'zma, chunki hayot qisqadir  
C)To'g'ri til toshni yoradi, egri til esa boshni yoradi D)Chiroylidir go'yo yosh kelin
27. Qaysi javobdagi birliklar imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan?  
A) milyard, artileriya B) 10-sinf, XXI-asr C) sog'gach, bargga D) keldida, bolayu
28. Ogahiy "Taviz ul-oshiqin" da she'riyatning nechta janrida ijod qilgan?  
A) 16 dan ortiq B) 20 dan ortiq C) 30dan ortiq D) 30ga yaqin
29. Yunon tarixchisi Polien kim haqidagi afsona mazmunini yozib qoldirgan?  
A) Sarbadorlar B) Shiroq C) A.Temur D) To'maris
30. Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni, Ayog'ing qanda bo'lsa, boshim anda. Misralardagi badiiy san'atni aniqlang?  
A)tazod, tashbeh B)ishtiyoq, tazod C)mubolag'a, tazod D)ishtiyoq, tadrij



**1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi.**

1. Qaysi javobdagi barcha soʻzlar tarkibida til orqa burun undoshi qatnashgan?  
A) soʻnggi, kongress, tungi                      B) jarang, singil, bugungi  
C) tong, shtanga, koʻrdingiz                      D) tongi, yengildi, dengiz
2. Qaysi javobda egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda tovush oʻzgarishi bilan yoziladigan tub soʻzlar qatori berilgan?  
A) bilak, qovoq, chelak                      B) axloq, tirnoq, pishloq  
C) yurak, buyruq, kerak                      D) sovuq, sana, oʻyin
3. Qaysi gapda imloviy xatolikka yoʻl qoʻyilgan?  
A) Oʻgʻil bolalar ariqlarni tozaladilar, qizlar esa hovlini supurdilar.  
B) Onam qoʻy goʻshtini oʻz yogʻiga qovurib berdilar.  
C) Sap-sariq qovunlarning xushboʻy hidi anqib turardi.  
D) Bugun yumushlarim koʻpayib ketdi, siz aytgan joyga bora olmadim.
4. Asosi feʼl boʻlgan ot turkumiga mansub yasama soʻzni belgilang.  
A) taroq, yoʻliq, bilim                      B) soʻlim, qoʻnim, tinim                      C) tiniq, terim, qochoq                      D) chiziq, chaqmoq, tilim
5. Qaysi javobda ot turkumiga oid oʻzaro maʼnodosh soʻzlar juftligi berilgan?  
A) tantiqlik – saxiylik                      B) husn - goʻzal                      C) sovgʻa – tuhfa                      D) tabassum - yigʻi
6. Ey inson, har bir soʻzni oʻylab gapir: tiling seni yo saodatmand etadi, yoxud halokatga boshlaydi. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar bilan yasalgan soʻzlardan nechtasining asosi bir boʻgʻindan iborat?  
A) 1                      B) 2                      C) 3                      D) 4
7. Qaysi javobda asosi omonim boʻlgan tub soʻz berilgan?  
A) oqizmoq                      B) tuzlamoq                      C) changimoq                      D) kechikmoq
8. «Alisherbek naziri yoʻq kishi erdi. Turkiy til bila to sheʼr aytibturlar, hech kim oncha koʻp va xoʻb aytqon emas» deb Navoiy haqida kim aytgan?  
A) Hakimshoh Qazviniy.                      B) Rashidiy.                      C) Bobur.                      D) Xondamir.
9. Bobur tarjima qilgan asar qaysi?  
A) «Riselayi volidiya»                      B) «Mubayyin»                      C) «Xatti Boburiy»                      D) «Tarixi Rashidiy»
10. “Ilohiy komediya” asarining muallifi kim?  
A) A.Oripov                      B) O.Balzak                      C) Dante                      D) Shekspir

**2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi**

11. Kelishik qoʻshimchalari bilan bogʻlangan soʻz birikmalarini toping?  
A) vatanni sevmok, mustaqil davlat                      B) mening vatanim, maktab bogʻi  
C) kuchli davlat, uydan chiqmoq                      D) ota-onalar majlisi, tilla zanjir
12. Sheʼriy parchada kesimlar qaysi soʻz turkumlari bilan ifodalangan?  
Bulutlar haydar shamol Goh yogʻib oʻtar yomgʻir  
Barglar pokiza, zilol Goh quyosh toʻkadi nur.  
A) sifat, feʼl                      B) ot, sifat, feʼl                      C) ot, sifat,                      D) ot, feʼl





13. Yasama soʻz berilmagan javobni toping.  
A) U koʻchaning boshida turib dodlar edi  
B) UZR, oʻrtoq, kitobimni Husnoraga berib yuborgan edim  
C) Hamma vaqt ham biz istaganday boʻlavermaydi  
D) Bizni koʻrib Dildora xonada yozilib yotgan toʻshaklarni yigʻishtira ketdi
14. Qaysi gapda fonetik oʻzgarish lugʻaviy shakl yasovchi taʻsirida paydo boʻlgan soʻz qatnashgan?  
A) Qiynalib erishilgan har bir narsa aziz  
B) Yurtidan ayrilgan yetti yil yigʻlar  
C) Orzum shul: oʻchmasin yongan chirogʻing  
D) Soʻnggi pushaymon oʻzingga dushman
15. Qaysi gap tarkibida sifatdosh mavjud?  
A) Jahli chiqqanidan hech kim koʻziga koʻrinmas edi  
B) Bilmaslik ayb emas, bilishni xohlamaslik ayb  
C) Taxtga chiqqach adolat bilan ish koʻribdi  
D) Rasm chizgani soy boʻyiga bordik
16. *Darhaqiqat, buyuk bobomiz faqat turkey emas, forsiy, arabiy, urdu, xitoy, moʻgʻul va boshqa tillardagi soʻzlardan ham mahorat bilan foydalangan.*  
Ushbu gapda yordamchi soʻz turkumlariga mansub soʻzlar soni nechta?  
A) 5      B) 2      C) 3      D) 4
17. Quyida berilganlardan qaysilari modal soʻz hisoblanadi? 1) xullas; 2) faqat; 3) darhaqiqat; 4) xayriyat; 5) chunki; 6) biroq.  
A) 2, 3, 6      B) 3, 4, 5, 6      C) 1, 3, 4      D) 1, 2, 4, 5
18. Nozuklik ichra belicha yoʻq tori gesuyi, Oʻz haddini bilib belidin oʻltirur quyi. Qaysi sanʼat qoʻllangan?      A) tajnis      B) husni taʻlil      C) tajohil orif      D) tardi aks
19. Behbudiy Arab tili grammatikasini qaysi togʻasidan oʻrgangan?  
A) Muhammad Siddiq      B) Mulla Odil      C) Muhammad Sodik      D) Muhammad Solih
20. «Oʻtkan kunlar» romani asosida suratga olingan filmda Homid rolida qaysi artist oʻynagan?  
A) Oʻlmas Alixoʻjayev      B) Hamza Umarov      C) Abbos Bakirov      D) Yoqub Ahmedov.

### C daraja

21. Buyruq-xitob undovi qatnashgan gapni aniqlang.  
A) Oh, qanday goʻzal bu olam!  
B) Iya, sen mehmonga kelasan-u, ovoragarchiligi bormi?  
C) Ey Luqmoni Hakim, sening dongʻing tutdi olamni.  
D) Voy, sen hali yalpiz nimaligini bilmaysanmi?
22. Feʻl+feʻl shaklidagi qoʻshma feʻllarni toping.  
A) quvonib keldi, shoshilib qoʻydi      B) sotib yubormoq, oʻylab qolmoq  
C) olib qochmoq, ishlab chiqarmoq      D) isib ketdi, yozib bordi
23. Qoʻshimcha qoʻshilishi bilan oʻzagida tovush oʻzgarishi boʻladigan soʻzlar qatorini toping.  
A) past, qasd      B) soʻra, ravnaq      C) qayir, qala      D) oʻrin, gurs







- 24.** Yoyiq undalma qatnashgan qo'shma gapni aniqlang.  
A) Mening uchun xo'p deya qolgin, jon o'rtoq  
B) Kamtarlik qilma, Yigitali, buni o'zingning halol mehnating tufayli olding  
C) Darhaqiqat, vatangadolikdan og'ir dard yo'q, do'stim.  
D) Chimxo'rsan-da, shirin qizim, shu ham osh yeyishmi?
- 25.** Qaysi qatorda holat ravishi o'timsiz fe'lga bog'langan?  
A)U eshik oldida hech narsa bo'lmaganday,gerdayib turardi  
B)Qaysidir voqea sabab Karimaga qasddan turxmat qildi  
C)Kechga yaqin charchab, arang yetib kelishdi  
D)Uyiga kelib biroz toliqqanini his qildi
- 26.** Qaysi gapda // shartli belgisi o'rnida tire tinish belgisi tushirib qoldirilgan?  
A) Tarixni o'rganishdan asosiy maqsad // milliy o'zligimizni chuqurroq anglash.  
B) Mening opam ham // talaba, bu yil oliygohga kirdilar.  
C) Bildi ota // foydasizdir kurashmoq.  
D) Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir // tun yarmidan og'ganda birdan uyg'onib ketasiz.
- 27.** Qaysi javobda o'zaro zid ma'noli iboralar berilgan?  
A) do'ppisini osmonga otmoq, ko'kka ko'tarmoq  
B) ko'kka ko'tarmoq, yerga urmoq  
C) tepa sochi tikka bo'lmoq, qovog'idan qor yog'moq  
D) tilining uchida turmoq, ko'z qorachig'iday asramoq
- 28.** «Abdulla Qodiriy iste'dodli, qalbi butun va o'ziga xos ravishdagi shaxs edi... Abdulla Qodiriyning prozasi, birinchi navbatda, g'oyatda hayotiyiligi bilan ajralib turadi», – degan fikrni kim aytgan?  
A) Abdulla Qodiriy.      B) Oybek.      C) Abdulla Oripov      D) Erkin Vohidov
- 29.** Shekspirning qaysi asari "Greyz Inn" tetrada sahnaga qo'yilgan?  
A)Romeo va Julyetta      B)Venera va Adonis      C)Hamlet      D)Xatolar komediyasi
- 30.** Furqatning qaysi g'azali Fuzuliy g'azaliga nazira sifatida yozilgan?  
A)Surmadin ko'zlar qaro,qo'llar hinodin lolarang  
B)Chaman sahnida derlar sarv birla yosuman nozik  
C)Muncha zolim bo'lmish ul xunrez qaro ko'laring  
D)Ul qora ko'z ko'zlariga surma bejo tortadur

